

## O'ZBEKISTON – FRANSIYA MUNOSABATLARI

Jahongirov B.B.

O'zDJTSU., Professor v.b.

Abdikadirova N.S.

O'zDJTSU., Dotsent v.b.

Nurullayeva Dj.S.

O'zDJTSU., Dotsent v.b.

Mirdjamolova N.Z.

O'zDJTSU., Katta o'qituvchi.

A'zamova M.G.

O'zDJTSU., O'qituvchi.

Xushvaqtov Z.R.

O'zDJTSU., O'qituvchi.

+998935188815. E-mail address: [buxxon2016@gmail.com](mailto:buxxon2016@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1567653>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning tarixi, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ta'lif va xavfsizlik sohalaridagi hamkorlik yo'nalishlari, shuningdek, strategik sheriklikni rivojlantirishdagi asosiy bosqichlar va istiqbolli loyihamalar va Fransiyaning O'zbekistonidagi investitsion faoliyati, ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlik yo'nalishlari va strategik loyihamalar, energetika, infratuzilma, aviatsiya, ta'lif sohalarida xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik sohasidagi hamkorlikning shakllanishi, yo'nalishlari va amaliy tashabbuslari, terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, Afg'onistonidagi vaziyat va kiberxavfsizlik kabi muammolar yuzasidan ikki tomonlama va ko'p tomonlama darajada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, Fransiya, diplomatik munosabatlar, siyosiy hamkorlik, madaniy almashinuv, ta'lif loyihamalar. tashqi siyosat, xalqaro hamkorlik. investisiya, iqtisodiy hamkorlik, energetika, xususiy sektor, Yevropa Ittifoqi. xalqaro xavfsizlik, mintaqaviy barqarorlik, terrorizm, Afg'oniston, hamkorlik.

### Kirish.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, tashqi siyosatda ko'p qirrali va muvozanatlashgan yo'l tutib kelmoqda. Fransiya bilan munosabatlar 1992 yil 1 martida rasman yo'lga qo'yilgan. Shu vaqtdan boshlab ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ta'lif sohalarida izchil rivojlanib kelmoqda. Fransiya Yevropadagi muhim strategik hamkorlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'z tashqi siyosatida ko'p yo'nalishli, ochiq va pragmatik tamoyillarni asos qilib oldi.

Shunday siyosiy yo'lning muhim komponentlaridan biri – Yevropa Ittifoqi, xususan, Fransiya bilan diplomatik va siyosiy munosabatlarni rivojlantirishdir. Fransiya O'zbekistonning eng ishonchli Yevropa hamkorlaridan biri hisoblanadi. Ikki davlat o'rtasidagi rasmiy siyosiy muloqotlar muntazam ravishda olib borilmoqda.

Fransiya hozirgi kunda O'zbekistonidagi eng faol Yevropa davlatlaridan biri bo'lib, ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar izchil rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan ochiq iqtisodiy siyosat, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratish choralarini Fransiya investorlarining faol ishtirokini ta'minlamoqda.

Madaniyat har qanday davlatlararo munosabatda "yumshoq kuch" sifatida diplomatik ko'priq vazifasini bajaradi. Fransiya va O'zbekiston o'rtasidagi madaniy hamkorlik — bu ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi do'stlik va anglashuvni chuqurlashtirishga xizmat qiladigan muhim vositadir. Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston Fransiya bilan faol madaniy muloqotni yo'lga qo'ydi. Bugungi kunda ushbu hamkorlik keng qamrovli va tizimli tus olgan.

Hozirgi global murakkab geosiyosiy sharoitda xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik muammolari har bir davlat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

O'zbekiston ham mintaqaviy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashga intilgan holda, Fransiya bilan strategik hamkorlikni mustahkamlab bormoqda. Fransiya — BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi va Yevropa xavfsizlik siyosatida muhim o'ringa ega davlat sifatida O'zbekiston uchun ishonchli hamkordir.

### **ADABIYOTLAR TAHLIL VA METODOLOGIYA.**

O'zbekistonning Fransiya bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ta'lim va xavfsizlik sohalaridagi hamkorlik yo'nalishlari, shuningdek, strategik sheriklik sohalarda hamkorlik aloqalarini rivojlantirib kelmoqda. Maqolani tayyorlash jarayonida O'zbekiston respublikasi Prezidenti asarlari, rasmiy saytlari, Tashqi ishlar vazirlikalrlarning rasmiy saytlari materiallari hamda Rahimov.J, Qurbanov.A, O'rionboyeva.I, Jo'rayev.J, Rahmatov.Sh, Saidova L.A, To'rayev.A, Yuldashev.J, Usmonov Q, Ergashev.H, Hamidov H larning ilmiy - tadqiqot ishlari va ommaviy axborot vositalari hamda internet materiallaridan keng foydalanildi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMALAR.**

O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi siyosiy munosabatlar do'stlik va o'zaro hurmatga asoslangan. O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yil 1-martda o'rnatilgan bo'lib, 1993-yil O'zbekistonning Parijdagi elchixonasi faoliyat boshladi. 1994-yilda esa Fransiyaning Toshkentdagi elchixonasi ochildi. Bu bosqich ikki davlat o'rtasida siyosiy ishonch va muloqot asoslarining yaratilgan davri bo'ldi. Siyosiy hamkorlikning chuqurlashuvi ikki davlat rahbarlarining tashriflari bilan yanada mustahkamlandi. [1.12].

1993-yilda birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Parijga rasmiy tashrif buyurdi. 2018 yil oktyabr: Prezident Shavkat Mirziyoyevning Fransiyaga rasmiy tashrifi buyurib, tashrif davomida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va xavfsizlik sohalarida 10 dan ortiq kelishuvlar imzolandi. 2022-yil noyabr: Mirziyoyevning Fransiyaga navbatdagi tashrifi, Prezident Emmanuel Makron bilan uchrashuvi. 2023 yil noyabrda bo'lib o'tdi. Fransiya Prezidenti Makronning O'zbekistonga ilk rasmiy tashrifi – bu tarixiy tashrif davomida strategik sheriklik, energetika, ta'lim va madaniyat sohalarida muhim hujjatlar imzolandi. [3.87].

Xalqaro va mintaqaviy munosabatlar doirasida ikki mamlakat, Afg'oniston bo'yicha o'zaro maslahatlashuvlar, Ekstremizm va terrorizmga qarshi hamkorlik, Markaziy Osiyo va Yevropa xavfsizligini ta'minlash bo'yicha muloqot.

Fransiya O'zbekistonga nisbatan Yevropa Ittifoqi siyosatida faol tarafda sifatida ko'rildi, O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan keng qamrovli sheriklik va hamkorlik bitimlari bo'yicha muzokaralarida Fransiya ko'maklashmoqda.

Fransiya O'zbekistondagi sud-huquq tizimi, gender tengligi va inson huquqlarini mustahkamlash bo'yicha loyihalarda ishtirok etmoqda. Fransiya — BMT Xavfsizlik Kengashi doimiy a'zosi sifatida O'zbekiston uchun geosiyosiy jihatdan strategik ahamiyatga ega. O'zbekiston uchun bu aloqalar Fransiya orqali Yevropa va jahon siyosiy doirasiga integratsiyalashuvning samarali vositasi hisoblanadi. O'zbekiston tashqi siyosatida muvozanat tamoyiliga muvofiq, Fransiya bilan aloqalar Yevroosiyo hamkorligi konsepsiyasida muhim o'rinn egallaydi. [4.54].

"Total Eren" — Fransyaning yirik energetika kompaniyasi. Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida qayta tiklanuvchi energiya (qaymoq quyosh elektrostansiyasi) loyihalarini amalga oshirmoqda. "EDF" (Électricité de France) — elektr energiyasi va ekologik loyihalarda hamkorlik qilmoqda. "Veolia" — Fransyaning global ekoservis va suv ta'minoti sohasidagi lideri. Toshkent, Buxoro va Samarqand shaharlarida ichimlik suvi tizimini modernizatsiya qilish loyihalarida ishtirok etmoqda. Fransyaning Airbus va ATR kompaniyalari O'zbekiston milliy aviakompaniyasi uchun zamonaviy samolyotlarni yetkazib berishda ishtirok etmoqda.

"Alstom" — elektr poyezdlar va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'yicha muzokaralar olib bormoqda. "Bouyguyes" — Fransyaning qurilish giganti. [8.12].

Toshkent va boshqa shaharlarda yirik infratuzilma ob'yektlarini barpo etishda qatnashmoqda. 2022 yildan buyon O'zbekiston – Fransiya biznes forumi muntazam o'tkazib kelinmoqda. Fransyaning MEDEF International tashkiloti orqali Fransyaning 40 dan ortiq kompaniyasi O'zbekiston bozoridagi loyihalarga qiziqish bildirgan. O'zbekiston – Fransiya savdo-sanoat palatasi ishlab turibdi. • Fransiya kompaniyalari xususiyashtirish jarayonlarida ham faol ishtirok etishni rejalashtirmoqda. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investisiyalar hajmi ortib borayotgani Fransiya sarmoyadorlarining O'zbekistonga bo'lgan ishonchi va qiziqishini aks ettiradi. [10.29].

2023 yil oxirida Fransiya sarmoyasi ishtirokidagi O'zbekistondagi kompaniyalar soni 80 tadan oshdi. So'nggi 5 yilda ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi ikki barobarga oshdi. "Alliancye Française" (Fransiya Aliansi) Toshkentda faoliyat yuritadi va fransuz tili, adabiyoti, kinosi, san'ati va taomlarini keng targ'ib qiladi. Fransyaning O'zbekistondagi elchixonasi ham doimiy ravishda madaniy festivallar, ko'rgazmalar, muzikal kechalar, film namoyishlari uyushtirib keladi. [11.13].

Har yili mart oyida o'tkaziladigan Frankofoniya haftaligi doirasida konsertlar, she'riyat kechalar, kinofestival va kulnariya ko'rgazmalari tashkil etiladi. Fransuz tili O'zbekistondagi 30 dan ortiq maktab va liseylarda o'qitiladi. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O'zMU va boshqa OTMlarda fransuz filologiyasi yo'nalishlari faoliyat yuritadi. Fransiyada o'qish istagida bo'lgan o'zbekistonlik yoshlar uchun Campus France agentligi orqali ma'lumotlar beriladi. 2023 yilda "Jan Mulen Lion-3" Fransiya universitetining Toshkentdagi filiali ochildi – bu ikki davlat o'rtasidagi ta'lim hamkorligining yangi bosqichidir. O'zbek milliy ansambllari, raqqosalalar guruhlari va musiqa jamoalari Fransiyada chiqishlar uyushtirib kelmoqda. [7.113].

“O‘zbekiston kino kunlari” doirasida mamlakat kinematografiyasi namunalarini Fransiya tomoshabinlariga taqdim etilmoqda. Samarqand, Xiva, Buxoro kabi shaharlar sivilizatsiya merosi sifatida Fransiya jamoatchiligi orasida targ‘ib qilinmoqda. Hamkorlikning foydalari. Xalqlararo muloqotni chuqurlashtiradi. Yoshlar o‘rtasida til, tarix, urf-odatlar orqali o‘zaro anglashuvni shakllantiradi. Ta’lim va turizm sohalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Geomadaniy va xalq diplomatiyasi rivojiga xizmat qiladi. [7.114].

Istiqlolli yo‘nalishlar. YUNESKO doirasida hamkorlik loyihamini kengaytirish. Teatr va rassomlik almashinuv dasturlarini yo‘lga qo‘yish. Madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha Fransiya tajribasini O‘zbekistonda joriy etish. O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi xavfsizlik sohasidagi hamkorlik quyidagi xalqaro hujjatlar va muzokaralarga asoslanadi. 1992 yil — diplomatik aloqalar o‘rnatalishi. 2018, 2022, 2023 yillardagi oliy darajadagi uchrashuvlar (Prezidentlar Mirziyoyev va Makron). 2023 yil — strategik hamkorlik deklaratsiyasida xavfsizlik sohasidagi sheriklik alohida ta’kidlangan. Afg‘onistondagi vaziyat Markaziy Osiyo xavfsizligiga bevosita ta’sir qiladi. [14].

O‘zbekiston va Fransiya quyidagi yo‘nalishlarda yaqin hamkorlik qilmoqda.

Afg‘onistonda inklyuziv siyosiy jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash. Insonparvarlik yordami yuborish (O‘zbekiston orqali). “Termiz xalqaro logistika markazi”dan foydalanish orqali Afg‘onistonga xalqaro yuklar yetkazishda Fransiya bilan hamkorlik. Xalqaro terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha BMT rezolyusiyalariga amal qiladi. Islom niqobi ostidagi radikal oqimlarga qarshi bilim va axborot almashinuvini amalga oshirmoqda. [18].

2021 yildan beri Fransyaning ichki ishlari va mudofaa sohasidagi mutaxassislar O‘zbekiston bilan tajriba almashuv dasturlarini amalga oshirmoqda. Fransyaning ANSSI (Agence nationale de la sécurité des systèmes d’information) agentligi O‘zbekistonning Axborot texnologiyalari sohasidagi tuzilmalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yan. Taraflar davlat axborot tizimlarining muhofazasi, internet orqali radikal g‘oyalarni tarqatishning oldini olish bo‘yicha o‘quv kurslari tashkil etmoqda. [5.101].

Fransiya — Yevropa Ittifoqining yetakchi a’zosi sifatida O‘zbekiston—YeI xavfsizlik muzokaralarida faol qatnashmoqda. BMT, YeXHT va SHHT kabi xalqaro maydonlarda O‘zbekiston tashabbuslariga Fransiya siyosiy yordam ko‘rsatmoqda. Fransiya diplomatlari O‘zbekiston tashabbusi bilan 2022 yilda o‘tkazilgan “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” xavfsizlik forumida faol ishtirok etdi. [2.59].

### Xulosa.

O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi munosabatlar so‘nggi yillarda strategik darajaga ko‘tarildi. Siyosiy ishonch, iqtisodiy manfaatdorlik va madaniy yaqinlashuv bu hamkorlikni yanada chuqurlashtirmoqda. Hozirgi global geosiyosiy sharoitda Fransiya — Yevropa Ittifoqidagi muhim hamkorlardan biri sifatida O‘zbekistonning tashqi siyosiy strategiyasida alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar yillar davomida ishonch, hurmat va manfaatdorlik tamoyillari asosida shakllanib bordi. Mamlakatlar o‘rtasidagi yuqori darajadagi tashriflar, imzolangan strategik hujjatlar, hamkorlikdagi loyihami — bularning barchasi o‘zaro aloqalarning mustahkam poydevorga ega ekanligini ko‘rsatadi. Kelgusida bu munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarilib, nafaqat ikki tomonlama, balki xalqaro miqyosdagi muloqotlar doirasini kengaytirishi shubhasiz.

Fransiyaning O‘zbekistondagi faol investision ishtiroki ikki tomonlama iqtisodiy munosabatlarning muhim ustuniga aylanmoqda. Fransiya nafaqat sarmoyaviy manba, balki zamonaviy texnologiyalar va bilimlarning yetkazib beruvchisi sifatida ham O‘zbekistonning barqaror taraqqiyotida muhim rol o‘ynamoqda. Kelgusida strategik hamkorlik yanada chuqurlashib, ikki davlat iqtisodiyoti uchun manfaatli natija beradi. Fransiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi madaniy hamkorlik do‘stona munosabatlarning muhim tayanchi hisoblanadi. U nafaqat davlatlararo siyosiy va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi, balki xalqlar o‘rtasida yurakdan yurakka yo‘l topadi.

## REFERENCES

1. Жаҳонгиров Б. Б. Научно-технические связи Узбекистана с зарубежными странами //Бюллетень науки и практики. – 2020. – Т. 6. – №. 8. – С. 284-288.
2. Жаҳонгиров Б. Б. ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЯПОНИЯ БИЛАН ИЛМИЙ ТЕХНИКАВИЙ АЛОҚАЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. Special Issue 1. – С. 312-318.
3. Жаҳонгиров Б. Б. Ўзбекистоннинг хорижий мамлакатлар билан илм-фан соҳасидаги ҳамкорлик алоқалари //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 986-994.
4. Жаҳонгиров Б. Б. Ўзбекистоннинг хорижий давлатлар билан илмий–техникавий ҳамкорлиги (илмий-тадқиқот институтлари мисолида) //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 5-2. – С. 823-829.
5. Жаҳонгиров Б. Б., Турғунов Т. А. ЎЗБЕКИСТОННИНГ ОСИЁ МАМЛАКАТЛАРИ БИЛАН ИЛМИЙТЕХНИКАВИЙ АЛОҚАЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 1010-1021.
6. Жаҳонгиров Б. Б. Ўзбекистон фанлар академиясининг хорижий мамлакатлар билан илмий-техникавий алоқалари. ҚарДУ хабарлари Илмий-назарий, услугий журнал. Maxsus сон (Ижтимоий фанлар) //КарДУ хабарлари Илмий-назарий, услугий журнал. Maxsus сон (Ижтимоий фанлар).-К, арши. – 2020. – С. 254-258.
7. Джахангиров Б. Б. Международные связи Узбекистана в области науки //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 15-19.
8. Жаҳонгиров Б. Б. ЎЗБЕКИСТОННИНГ ҲИНДИСТОН БИЛАН ИЛМИЙ ТЕХНИКАВИЙ АЛОҚАЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 1058-1065.
9. Жаҳонгиров Б. Б., Бўронов А. Б. Ў. ЎЗБЕКИСТОННИНГ ХИТОЙ БИЛАН ИЛМИЙ ТЕХНИКАВИЙ АЛОҚАЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 372-379.
10. Жаҳонгиров Б. Б. Узбекистонда илм-фан холати, тараккиёт йуналишлари (1980-2010 йиллар) Монография." //Монография." Qaqnus media" нашриёти, Тошкент. – 2020.

11. Жахонгиров Б. Б. НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА С ЗАРУБЕЖНЫМИ СТРАНАМИ //Наука и образование: проблемы и тенденции развития. – 2016. – №. 1. – С. 18-20.
12. Jahongirov B. Ўзбекистон ва Туркия муносабатлари //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. С8. – С. 211-215.
13. Nurullayeva D. S. et al. ETHICAL PROBLEMS AND THEM IN THE FIELD OF NATURE SOLUTIONS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 480-486.
14. Abdikadirova N. S. et al. Football in Uzbekistan: Law, Leisure and Sociology //Psychology and education. – 2021. – Т. 58. – №. 1. – С. 1995-2002.
15. Abdikadirova N. S. Mechanisms of forming youth leisure organization. modern education systems in the usa, the eu and the post-soviet countries. – 2020.
16. Abdikadirova N. S. Existing Systems for Organizing Youth Leisure in The World //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2023. – Т. 10. – №. 2. – С. 568-572.
17. Абдикадирова Н. С. ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТДА ЁШЛАРНИНГ БЎШ ВАҚТИНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШДА СПОРТНИНГ РОЛИ //Fan-Sportga. – 2020. – №. 5. – С. 54-56.
18. Abdikadirova N. THE UNIQUENESS OF THE INTELLECTUAL FREE TIME OF UZBEKISTAN'S STUDENTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 220-228.
19. Abdikadirova N. S. ROLE OF CHESS IN ORGANIZATION OF YOUTH LEISURE //EURASIAN EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION. – 2020. – С. 30.
20. Азамова З. Б. НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ РАБОТЫ СЛЕДСТВЕННЫХ ОРГАНОВ ПО ПРЕСЕЧЕНИЮ ПРЕСТУПЛЕНИЙ //Наука, новые технологии и инновации Кыргызстана. – 2015. – №. 5. – С. 128-132.
21. Kazakov R. T. et al. MULTIMEDIA SYSTEMS AND DISTANCE LEARNING TECHNIQUES IN SPORTS SOX //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 99-105.
22. Казоқов Р. Т. и др. МАМЛАКАТИМИЗ ЯНАДА ЮКСАЛИШИДА БОЛАЛАР СПОРТИНИНГ ЎРНИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 5-11.
23. Казоқов Р. Т. и др. ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 111-115.
24. Казоқов Р. Т. Кейс стади технологияларидан фойдаланиб талабаларнинг масофавий таълим технологиялари асосида педагогик маҳоратини шакллантириш //Замонавий футболни ривожлантириш тенденциялари: муаммо ва ечимлари. – Т. 11. – №. 1.
25. Казоқов Р. Т., Мирзабдиллаева А. И., Мирзабдиллаева Х. И. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ-

- МАЊАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 29-34.
26. Казоқов Р. Т. и др. ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 111-115.
27. Kazoqov R. T., Djurabaev A. M. Kredit modul tizimi nima //Ta'limni raqamlashtirish sharoitida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-206.
28. Казоқов Р. Т. и др. КАСБИЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ИЛГОР ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ЗАРУРАТИ //GOLDEN BRAIN. – 2024. – Т. 2. – №. 8. – С. 69-77.
29. Казоқов Р. Т., Жўракўзиев О. О., Эшпўлатов С. С. СПОРТ МУАССАСАЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ-МАЊАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 238-248.
30. Казоқов Р.Т., Бўриев Б.Ў., Абдиев Б.Ш., Джўрабаев А.М., Туропов А.Р.КУРАШ МИЛЛИЙ СПОРТ ТУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ // МИЛЛИЙ КУРАШ ТУРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ НАЗАРИЙ-АМАЛИЙ МУАММОЛАРИ. - 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 161-163.
31. Ziyamuxamedova S. A., Kazaqov R. T., Shukurova S. S. SOME BIOCHEMICAL BLOOD RESEARCHES OF ROWERS DURING PREPRATION PERIOD AND CONTESTS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 982-989.
32. Юсупова З. Э. и др. ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТДА ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ АСОСИДА ЎҚИТИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ //Modern Science and Research. – 2025. – Т. 4. – №. 4. – С. 24-35.
33. Нуруллаева Д.С.Legal status of footbal agents and their requirements - Web of scientist: international scientific,Research journal, volume 5,issue 10,oktober 2024 – p.11-18
34. Нуруллаева Д.С.Футбол мусобақаларида допингга қарши қураш чоралари - Fansportqa Ilmiy-nazariy jurnal 2025/2 –Б.70-73
35. Нуруллаева Д.С.Gender Roles and Changes in Society- International Journal of Scientific Trends- (IJST) Volume 4, Issue 2, February – 2025.-p.49-53
36. Нуруллаева Д.С. Подготовка футболистов в Узбекистане к тест системе «YO-YO». Фалсафа ва хукук-журнал 1-. – 2025. –С.96-99.
37. Мирджамалова Н.З. “Хотин-қизлар орасида соғлом турмуш тарзини олиб боришда -жисмоний тарбия ва спортнинг рўли”. “Спортда илмий тадқиқотлар” журнал.2023.-Б.84-87.
38. Мирджамалова Н.З “Хотин-қизлар ҳаётида соғломлаштирувчи жисмоний машқларнинг аҳамияти” “Спорт ва Медицина” журнали. 06.2023.-Б.86-89
39. Мирджамалова Н.З Оздоравительная аэробика: содержание и методика.FAN-SPORTGA ILMIY-NAZARIY JURNAL 2023/3.-Б.43-46

40. Mirdjamalova N.Z.Milliy g‘oya va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida maktab ta’limining o‘rni. International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» VOLUME.3/ISSUE.12./UIF:8.2/ MODERN SCIENCE.UZ-2024
41. Xushvaqtov Zohidjon Roziqovich. Sport nizolarini ko‘rib chiqish va hal qilishning huquqiy asoslari. Universal journal of social sciences, philosophy and culture volume 3 ISSUE 23 ISSN 2992-8834.-B. 235
42. Xushvaqtov Zohidjon Roziqovich. Yulduzlar ortida qoldirilgan meros. Zamonaviy ta’limda fan va innovatsion tadqiqotlar jurnali <http://zamtadqiqot.uz/index.php/ZTFITJ/.-B.42>
43. Azamova. M.G’. Jamiyat tarixiy taraqqiyotida ayollarning orni Toshkent 2025.
44. Azamova. M.G’. Tabiat sohasida etika muammolari va ularni yechish yo‘llari. “Modern science and Research jurnali. 2025.
45. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 552-560.